



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY O'QUV-TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Abdubannopova Ruhshona Muhiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Aldashev Ilxomjon To'xtaboyevich

FarDU Axborot texnologiyalari kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada e-learning, gadgetlar, smartfonlar, elektron doskalar va shu kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, usullari, til o'rganuvchilar xorijiy tillarni oson, puxta va samarali o'rganishlari uchun foydali va yangi innovatsion metodlar haqida atroflicha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: smart o'qitish, zamonaviy o'quv-texnik vositalar, interfaol usullar, elektron va onlayn o'quv resurslari, o'rganilayotgan til bo'yicha kompyuter dasturlari.

KIRISH QISM:

Bugungi shiddat bilan taraqqiy etayotgan asrda ilm-fan, texnologiyalar ham katta sur'at bilan o'sib bormoqda. Har jahada yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Shuningdek, ilm-fanning turli xil yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar, katta yutuqlarga erishish kuzatilmoqda. Har qanday mavzuni talabalarga oson, sifatli va mukammal tushuntirish va yetkazib berish hozirgi paytdagi ta'limning eng muhim talablardan biri hisoblanadi. Xususan, o'tgan yillar davomida prezidentimiz chet tillarini o'qitishda innovatsion vosita va texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan ko'plab qarorlari qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Xorijiy til, shuningdek, ingliz, nemis, fransuz, rus, arab tili darslarini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion metodlar, axborot-kommunikativ vositalaridan foydalanish keng tus olmoqda. Mamlakatimizda chet tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor va qiziqishning kuchayganligi fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Darhaqiqat, so'nggi yillar mobaynida o'qituvchilar, o'quvchilar va talabalar orasida chet tili sertifikatiga ega bo'lgan til o'rganuvchilar salmog'i ortdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:



Har qanday tilni o'rganayotgan inson o'zida aynan shu tilda erkin muloqot qilish, o'qigan maqola, kitoblar va jumlalarini tushunish, eshitganlarini analiz qilish, aniq va mukammal gaphirish ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qiladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda bu maqsadlarga erishish uchun bir qancha imkoniyatlar eshigi mavjud. Masalan, bugungi kunda eng ko'p tarqalgan va zamonaviy usullardan biri bu – eshitish orqali tillarni intensiv ravishda o'rganish. Bunig uchun Booknomy, Tedbook singari kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan kitoblarni misol qilib keltirish mumkin. Shu jumladan, e-learning ya'ni onlayn o'qishning foydalaridan biri makon va zamon tushunchalarining ahamiyatsiz ekanligida, Misol uchun siz avtobus, metro yoki shu kabi jamoat transportlarida ham qulqochinlar yordamida o'rganilayotgan tilda podcastlar, musiqalar eshitish orqali talaffuz va yangi so'zlarni o'rganishingiz mumkin.

Sinfxonada tillarni o'qitishda foydalanish uchun smart texnologiyalardan foydalanish ham rivojlanib, ravnaq topib bormoqda. Misol uchun, chet tillarida o'rganilgan yangi so'zlar, iboralarni mustahkamlash uchun quiz, kahoot kabi test tuzish dasturlaridan foydalanish juda ham katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu usul orqali boshqa tillardagi yangi so'zlar o'rganuvchining ongida oson va tez saqlanadi. Qo'shimcha ravishda dars jarayonining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'quvchilardagi olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, tekshirish, sinovdan o'tkazish uchun easyQuizzy dasturidan ham foydalanish mumkin. Bu usul orqali shaffoflik ta'minlanadi, vaqt tejaladi, talabalar test natijasini njuda ham tez fursatlarda bilib olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; — CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail pochta orqali xat yozishish bilan yozish



ko'nikmasini takomillashtirish mumkin. Ta'lism jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lism jarayonida innovations texnologiyalar va intensiv, interfaol usullardan foydalanish bir qancha ijobjiy ahamiyatga ega. Bularni to'g'ri anglagan holda smart vositalar, gadgetlar va elektron doskalarni o'qitish jarayoniga olib kirsak, ta'lism sifatida sezilarli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Onlayn o'qitish, masofaviy ta'lism talabalarga vaqtini va sarmoyani tejash, erkin o'rganish, mustaqil fikrlash kabi imkoniyatlarni beradi. Shuningdek, ular har qanday shaorit va paytda darslarni o'zlashtirish uchun katta shansga ega bo'ladilar. Darhaqiqat, elektron shaklda tayyorlangan har qanday o'quv materiallari o'qitishning barcha yo'nalishlarida yuqori sifat va samarani ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son
2. Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning umumiyl samaradorligini oshirish yo'llari. Xolto'rayeva H. 2023
4. "Animatsiya asoslari" - T. Ismoilov (2005)
5. Theoretical and methodological basis of modeling didactic processes based on gamification technologies RS Avazjonovich - International Journal of Pedagogics, 2023
6. Положительное влияние интерактивных технологий на качество и эффективность образования Ш Рузалиев - Экономика и социум, 2021
7. Types of games used in the organization of the educational process and features of gamification SA Ruzaliev - Current research journal of pedagogics, 2023
8. Положительное влияние интерактивных технологий на качество и эффективность образования Ш Рузалиев - Экономика и социум, 2021
9. I.Aldashev "O'qituvchi ishida ijodiy yondashish xususiyatlari" Results of National Scientific Research International Journal 2023 Volume 2 | Issue 4
<https://lex.uz>
<https://kursi24.uz>